



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YI INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdulkarimovna	
Sarvinov Mamatojievna Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulloeva Fariza Akmalievna	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyovich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES	76
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO Tajribalar Qiyosiy Tahlili	117
G'afforov Kamronbek	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich	
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich	
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI



Omonova Zarina Xudoymurodovna
Termiz davlat universiteti
“Moliya” kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0000-6552-3513

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish istiqbollari ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Maktabgacha ta'limni moliyalashtirish tushunchasi faqat budjet mablag'larini ajratish jarayoni sifatida emas, balki bolalarning sifatli ta'lim-tarbiyadan teng foydalanishini ta'minlaydigan moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlar majmui sifatida talqin qilinadi. Maqolada davlat budjeti, mahalliy budjetlar, davlat-xususiy sheriklik, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy bog'chalar, xalqaro moliya institutlari, grantlar, subsidiya va kompensatsiyalar tizimining o'zaro bog'liqligi ochib beriladi. Xorijiy tajriba tahlilida davlat kafolati, bola boshiga moliyalashtirish, ijtimoiy yo'naltirilgan subsidiya, sifat indikatorlariga asoslangan mablag' taqsimoti va raqamli monitoring mexanizmlarining ahamiyati asoslanadi. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalardan foydalanish milliy huquqiy baza, hududiy ehtiyoj, aholining to'lov qobiliyati, demografik o'sish, xususiy sektor salohiyati va ta'lim sifati mezonlarini uyg'unlashtirish orqali natijador bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, moliyalashtirish mexanizmi, davlat budjeti, mahalliy budjet, davlat-xususiy sheriklik, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, oilaviy bog'cha, subsidiya, kompensatsiya, xorijiy tajriba, bola boshiga moliyalashtirish, ta'lim sifati, ijtimoiy adolat, raqamli monitoring.

Abstract: This article discusses the prospects for using the experience of foreign countries in improving the system of financing the activities of preschool educational organizations in the Republic of Uzbekistan from a scientific and practical perspective. The concept of financing preschool education is interpreted not only as a process of allocating budget funds, but also as a set of financial, organizational, legal and social mechanisms that ensure equal access of children to quality education. The article reveals the interdependence of the state budget, local budgets, public-private partnerships, non-state preschool educational organizations, family kindergartens, international financial institutions, grants, subsidies and compensation systems. The analysis of foreign experience substantiates the importance of state guarantees, per-child financing, socially oriented subsidies, distribution of funds based on quality indicators, and digital monitoring mechanisms. In the conditions of Uzbekistan, the use of these experiences can be effective by harmonizing the criteria of the national legal framework, territorial needs, population solvency, demographic growth, private sector potential and education quality.

Keywords: preschool education, financing mechanism, state budget, local budget, public-private partnership, non-governmental preschool education organization, family kindergarten, subsidy, compensation, foreign experience, per-child financing, education quality, social justice, digital monitoring.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы использования опыта зарубежных стран в совершенствовании системы финансирования деятельности организаций дошкольного



образования в Республике Узбекистан с научной и практической точки зрения. Концепция финансирования дошкольного образования рассматривается не только как процесс распределения бюджетных средств, но и как совокупность финансовых, организационных, правовых и социальных механизмов, обеспечивающих равный доступ детей к качественному образованию. В статье раскрывается взаимозависимость государственного бюджета, местных бюджетов, государственно-частного партнерства, негосударственных организаций дошкольного образования, семейных детских садов, международных финансовых институтов, грантов, субсидий и компенсационных систем. Анализ зарубежного опыта обосновывает важность государственных гарантий, финансирования на одного ребенка, социально ориентированных субсидий, распределения средств на основе качественных показателей и цифровых механизмов мониторинга. В условиях Узбекистана использование этого опыта может быть эффективным при гармонизации критериев национальной правовой базы, территориальных потребностей, платежеспособности населения, демографического роста, потенциала частного сектора и качества образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, механизм финансирования, государственный бюджет, местный бюджет, государственно-частное партнерство, неправительственная организация дошкольного образования, семейный детский сад, субсидирование, компенсация, зарубежный опыт, финансирование на одного ребенка, качество образования, социальная справедливость, цифровой мониторинг.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim jamiyatning uzoq muddatli intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim bosqichlardan biridir. Bola shaxsining nutqi, aqliy, ijtimoiy, emotsional va jismoniy rivojlanishi aynan ilk yosh davrida jadallashadi. Shu sababli maktabgacha ta'limga yo'naltirilgan xarajatlar oddiy ijtimoiy sarf emas, balki kelajakdagi inson kapitaliga kiritiladigan strategik investitsiya sifatida baholanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, nodavlat sektorni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi quvvatlarni yaratish, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va sohani raqamlashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish masalasi mazkur islohotlarning markazida turadi. Yangi bino va guruhlar tashkil etish, pedagog va metodistlar mehnatini munosib rag'batlantirish, bolalarni ovqatlantirish, didaktik materiallar bilan ta'minlash, sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash, inklyuziv muhit yaratish, xavfsizlikni ta'minlash va raqamli boshqaruvni yo'lga qo'yish barqaror moliyaviy manbalarni talab qiladi. Moliyalashtirish samaradorligi mablag'ning hajmi bilan cheklanmaydi. Mablag' kimga, qanday mezon asosida, qaysi hududga, qaysi ijtimoiy natijani ta'minlash uchun va qanday nazorat mexanizmi orqali yo'naltirilishi moliyaviy siyosatning mazmunini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son¹ Qonunida ta'limning barcha bosqichlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, maktabgacha ta'lim va tarbiya alohida huquqiy tartibga ega ekanligi qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son² Qonuni esa ushbu bosqichni bolani maktabga tayyorlash, uning sog'lom rivojlanishi va tarbiyalanishini ta'minlashga qaratilgan muhim institut sifatida mustahkamlaydi. Bu huquqiy asoslar moliyalashtirish tizimini ham faqat muassasa xarajatlarini qoplash emas, balki bolaga yo'naltirilgan sifatli xizmatni kafolatlash mexanizmi sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, bolalar qamrovini kengaytirish, maktabga tayyorlov guruhlari orqali ta'lim uzluksizligini ta'minlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish vazifalari belgilangan. Bu vazifalar moliyaviy manbalarni ko'paytirish, davlat budjeti va xususiy investitsiyalarni uyg'unlashtirish, chekka hududlarda xizmatga kirish imkoniyatini oshirish, sifat nazoratini kuchaytirish va raqamli monitoringni rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. 2025–2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga qaratilgan hukumat qarorlarida 80 foizlik qamrov maqsadi, davlat va nodavlat tashkilotlar sonini ko'paytirish, DXSH va oilaviy bog'chalar salohiyatidan foydalanish vazifalari aniq ko'rsatilgan.

Mavzuning ilmiy dolzarbligi shundaki, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi bir vaqtning o'zida uchta strategik vazifani hal qilishi zarur. Qamrovni oshirish, ta'lim sifatini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikka erishish bir-biridan ajralgan holda amalga oshmaydi. Faqat yangi bog'cha qurish yetarli emas. Unga malakali pedagog, doimiy xarajatlar, sifat nazorati, ota-onalar uchun maqbul to'lov darajasi, bolalarning rivojlanishiga mos pedagogik muhit va samarali boshqaruv kerak. Faqat xususiy sektorni kengaytirish ham yetarli emas. Agar

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

² <https://lex.uz/acts/-4646908>



davlat ijtimoiy kafolatni saqlab qolmasa, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining sifatli maktabgacha ta'limga kirish imkoniyati cheklanishi mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun tayyor modelni mexanik tarzda ko'chirish emas. Har bir davlatning budget imkoniyati, demografik holati, oila daromadlari, xususiy sektor rivojlanish darajasi va ta'lim standartlari farq qiladi. Shuning uchun maqolada xorijiy tajriba milliy sharoitga moslashtirish, ijtimoiy adolatni saqlash, davlat kafolatini kuchaytirish, xususiy investitsiyani ta'lim sifati bilan bog'lash va moliyaviy qarorlarni raqamli dalillar asosida qabul qilish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish masalasi so'nggi yillarda mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. K.R. Nasurova maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib, moliyaviy mexanizmni qamrov darajasi, davlat-xususiy sheriklik, xizmat sifati va budget mablag'laridan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq holda o'rganadi. Mazkur yondashuv maktabgacha ta'limni moliyalashtirishni oddiy smeta xarajatlari doirasida emas, balki ta'lim xizmatining natijadorligini ta'minlaydigan boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilish imkonini beradi³.

Mahalliy tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning nazariy asoslari davlat budgeti, mahalliy budgetlar, ota-onalar to'lovi, homiylik, grantlar va nodavlat sektor mablag'lari bilan bog'liq holda izohlanadi. Ushbu yondashuv ta'lim tashkilotining moliyaviy barqarorligi faqat bitta manbaga tayanmasligi kerakligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ish haqi, oziq-ovqat, kommunal xizmatlar, joriy ta'mir, o'quv-metodik materiallar, o'yin jihozlari, sanitariya-gigiyena vositalari, tibbiy xizmat, xavfsizlik va axborot tizimlari bilan bog'liq xarajatlar mavjud. Moliyalashtirish mexanizmi mana shu xarajatlarni bolalar rivojlanishiga xizmat qiladigan resurslar bilan bog'lay olsagina samarali hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarda erta yoshdagi ta'limni moliyalashtirish ijtimoiy investitsiya sifatida baholanadi. Jahon banki ma'lumotlarida O'zbekistonda 2017-yilda 3–7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga jalb qilish 0,7 million nafar yoki 27 foiz atrofida bo'lgani, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,44 million nafar yoki 75 foizga yetgani qayd etiladi. Bu raqamlar O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida qamrov masalasi jadal hal qilinayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qamrov o'sishi sifat, moliyaviy barqarorlik va hududlararo tenglik masalalarini yanada dolzarb qiladi⁴.

OECD mamlakatlari tajribasi maktabgacha ta'limni bozor mexanizmlariga to'liq topshirish ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. OECD tahliliga ko'ra, 2015–2022-yillar oralig'ida OECD davlatlarida maktabgacha ta'lim darajasida hukumat xarajatlari o'rtacha 23 foizga, har bir bolaga to'g'ri keladigan davlat xarajatlari esa 24 foizga oshgan⁵. Bu holat rivojlangan mamlakatlarda ham erta ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qolayotganini anglatadi. UNESCOning O'zbekiston bo'yicha tahlillarida xususiy sektor ulushi oshib borayotgani bilan birga, davlatning tartibga solish, sifat nazorati va ijtimoiy kafolat funksiyasi yanada kuchayishi zarurligi ko'rinadi⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Jahon banki, UNESCO, OECD, UNICEF hamda maktabgacha ta'lim sohasiga oid ilmiy adabiyotlar va statistik manbalardan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tizimli va mantiqiy tahlil usullari yordamida o'rganilib, xorijiy moliyalashtirish modellarining afzalliklari hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish deganda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalar salomatligi va xavfsizligini ta'minlash, pedagogik muhitni yaratish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, xodimlar mehnatiga haq to'lash, xizmat sifati nazorat qilish va muassasa faoliyatining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash, sarflash va baholash jarayoni tushuniladi. Bu jarayonning mazmunida mablag' manbasi, mablag' taqsimoti mezonlari, xarajatlar tarkibi, natijadorlik ko'rsatkichi, ijtimoiy adolat darajasi va nazorat mexanizmi o'zaro bog'langan holda namoyon bo'ladi (1-rasm).

3 Nasurova K.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari // International Finance and Accounting. 2024. № 3.

4 World Bank Group ma'lumotlari: O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi 2017-yildagi 0,7 mln boladan 2024-yilda 2,44 mln bolaga yetgan.

5 OECD. Education at a Glance 2025: OECD Indicators. Maktabgacha ta'limni moliyalashtirish bo'limi.

6 UNESCO Global Education Monitoring Report. Uzbekistan country case study, 2026.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning ijtimoiy yo'naltirilgan aralash usuli⁷

Moliyalashtirishning tarkibiy unsurlari bir nechta qatlamlardan iborat. Davlat budjeti tizimning asosiy ijtimoiy kafolatini ta'minlaydi. Mahalliy budjetlar hududiy ehtiyojlarni hisobga olish imkonini beradi. Xususiy sektor yangi quvvatlar yaratish, xizmat turlarini kengaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Davlat-xususiy sheriklik kapital xarajatlar va operatsion xarajatlar o'rtasida maqbul nisbatni shakllantiradi. Ota-onalar to'lovi muassasa faoliyatida qo'shimcha resurs sifatida ishtirok etadi, lekin u ijtimoiy adolat chegarasidan chiqmasligi lozim. Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, grantlar va homiylik resurslari infratuzilma, innovatsiya, inklyuziv ta'lim va raqamlashtirish yo'nalishlarida qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning shakllanish omillari demografik o'sish, urbanizatsiya, qishloq hududlaridagi infratuzilma farqlari, oilalarning daromad darajasi, ayollar bandligini oshirish ehtiyoji, ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va davlat budjeti imkoniyatlari bilan bog'liq. Aholisi tez o'sayotgan hududlarda MTT o'rinlariga talab yuqori bo'ladi. Chekka mahallalarda katta bog'cha qurish har doim ham iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmasligi mumkin. Bunday sharoitda oilaviy bog'chalar, qisqa muddatli guruhlar, mobil guruhlar, mavjud binolardan moslashuvchan foydalanish va DXSH asosidagi loyihalar moliyaviy jihatdan samaraliroq yechim beradi.

Davlat-xususiy sheriklik O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. DXSH oddiy xususiylashtirish emas. Unda davlat ijtimoiy vazifani saqlab qoladi, xususiy sherik esa infratuzilma yaratish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va investitsiya kiritish orqali tizim rivojiga hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son⁸ Qonun mazkur munosabatlarning huquqiy asosini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim sohasida DXSHning afzalligi shundaki, u davlat budjeti yukini mutlaqo kamaytirish emas, balki davlat resurslaridan samarali foydalanish va xususiy investitsiyani ijtimoiy maqsadga yo'naltirish imkonini beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 426-son⁹ qarorida maktabgacha ta'lim sohasida DXSH munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish masalalari belgilangan. Bu hujjat oilaviy nodavlat MTTlar, subsidiya va kompensatsiyalarni elektron tizim orqali yuritish, xususiy sherik bilan bitimni raqamli shaklda rasmiylashtirish va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv xorijiy tajribadagi "pul muassasaga emas, xizmat natijasiga ergashadi" tamoyiliga yaqinlashadi. Agar mablag' bola davomatiga, xizmat hajmiga va belgilangan mezonlarga bog'lansa, moliyalashtirishning shaffofligi oshadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish moliyaviy nazoratning eng muhim shartlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha

⁷ Manba: muallif ishlanmasi.

⁸ <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>

⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-6141472>



chora-tadbirlari to'g'risida"gi 848-son¹⁰ qarorida "Bolalar bog'chasi" axborot tizimida davlat MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilarining elektron davomatini yuritish, ish vaqti tabelini shakllantirish, ota-onalar to'lovlari hamda boshqa to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish belgilangan. Raqamli monitoring budjet mablag'lari sarfini qog'ozdagi reja bilan emas, real xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bog'laydi. Davomat, tarbiyalanuvchi soni, xodimlar ro'yxati, to'lovlar va kompensatsiyalar yagona tizimda kuzatilsa, sun'iy ko'rsatkichlar va noto'g'ri subsidiya ajratish xavfi kamayadi.

Xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishda eng muhim tamoyil milliy sharoitga moslashtirishdir. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning turli modellari mavjud. Ayrim davlatlarda davlat xizmat ko'rsatuvchi asosiy subyekt sifatida qatnashadi. Ayrim mamlakatlarda davlat xizmatni to'liq o'zi ko'rsatmaydi, balki xususiy va notijorat operatorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa davlatlarda ota-onalarga vaucher, soliq imtiyozlari yoki maqsadli subsidiya beriladi. Bularning barchasini birlashtirib turadigan umumiy jihat shuki, maktabgacha ta'lim bozor xizmatiga aylantirilmaydi. U ijtimoiy ahamiyatga ega xizmat sifatida davlat kafolati ostida rivojlantiriladi.

Singapur tajribasi O'zbekiston uchun qiziqarli amaliy model bo'la oladi. Singapurda Anchor Operator Scheme orqali davlat tanlangan maktabgacha ta'lim operatorlariga moliyaviy yordam beradi. Ushbu yordam sifatli va arzon maktabgacha ta'limdan foydalanish imkoniyatini oshirishga, ayniqsa, kam daromadli va ijtimoiy jihatdan zaif oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu tajribaning O'zbekiston uchun muhim jihati shundaki, davlat barcha xususiy operatorlarga bir xil tartibda mablag' bermaydi. Natijada xususiy sektor ijtimoiy xizmat standarti bilan bog'lanadi.¹¹

O'zbekiston sharoitida shunga o'xshash modelni "ijtimoiy operator" tamoyili asosida rivojlantirish mumkin. Qamrov darajasi past tumanlarda davlat xususiy tadbirkorga yer, bino, imtiyozli kredit, subsidiya yoki ish haqi xarajatlarini qoplash kabi qo'llab-quvvatlash choralari beradi. Buning evaziga operator ota-onalar to'lovi bo'yicha maqbul chegarani saqlaydi, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun o'rin ajratadi, sifat standartlariga rioya qiladi va davlat axborot tizimida shaffof hisobot beradi. 2026-yilning fevral oyida Prezident rasmiy axborotida qamrov 80 foizdan past hududlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, subsidiya, imtiyozli kredit va ish haqi xarajatlarini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar muhokama qilingani qayd etildi (1-jadval).¹²

1-jadval. Xorijiy moliyalashtirish tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'nalishlari¹³

Tajriba elementi	Xorijiy amaliyot mazmuni	O'zbekiston uchun mos yo'nalish	Kutiladigan natija
Davlat kafolati	Maktabgacha ta'lim ijtimoiy xizmat sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.	Minimal sifat standarti, davlat buyurtmasi va maqsadli subsidiya uyg'unlashtiriladi.	Kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun kirish imkoniyati kengayadi.
Bola boshiga moliyalashtirish	Mablag' muassasa mavjudligiga emas, real tarbiyalanuvchi va xizmat hajmiga bog'lanadi.	Hudud, oila daromadi va maxsus ehtiyojlarga qarab koeffitsiyentlar belgilanadi.	Mablag' aniq ehtiyojga yo'naltiriladi, qamrov oshadi.
Ijtimoiy operator modeli	Davlat tanlangan xususiy operatorlarni narx va sifat majburiyati asosida qo'llab-quvvatlaydi.	Qamrov past hududlarda DXSH va nodavlat MTTlar uchun shartli subsidiya beriladi.	Xususiy sektor ijtimoiy vazifa bilan bog'lanadi.
Raqamli monitoring	Davomat, to'lov, xodim va xizmat sifati indikatorlari elektron kuzatiladi.	NMTTBAT va "Bolalar bog'chasi" tizimlari moliyalashtirish bilan integratsiya qilinadi.	Budjet mablag'lari sarfi shaffoflashadi.
Sifatga bog'langan moliya	Mablag' ajratish xizmat sifati va natijadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lanadi.	Akkreditatsiya, pedagog malakasi va sanitariya holati moliyaviy rag'batga ulanadi.	Qamrov bilan birga sifat ham oshadi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik O'zbekiston uchun moliyalashtirishning istiqbolli manbalaridan biridir. UNICEF ma'lumotida Islom taraqqiyot banki loyihasi O'zbekistonning 2028-yilgacha maktabgacha ta'lim bilan universal qamrovga erishish maqsadini qo'llab-quvvatlash uchun 30 million AQSH dollari yo'naltirishini, loyiha maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va jihozlash, sifatli erta ta'lim muhitini yaxshilash va tizim

10 <https://lex.uz/uz/docs/-7271280>

11 Early Childhood Development Agency, Singapore. Anchor Operator Scheme.

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha rasmiy axboroti.


13 Manba: muallif ishlanmasi.



salohiyatini oshirishga qaratilganini bildirgan. Bunday loyihalar qisqa muddatli kapital xarajatlarni qoplashda foydali. Ularning uzoq muddatli samaradorligi milliy budjet tizimiga integratsiya qilinishi, xarajatlar barqarorligi va mahalliy kadrlar salohiyati bilan belgilanadi.¹⁴

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish istiqbollari bir nechta amaliy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Eng muhim yo'nalish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishdir. Davlat budjeti asosiy kafolat vazifasini bajaradi, xususiy sektor yangi quvvat yaratadi, mahalliy budjet hududiy moslashuvchanlikni ta'minlaydi, xalqaro moliya institutlari infratuzilmaviy sakrash imkonini beradi, grantlar va homiylik esa innovatsion, inklyuziv va metodik loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Bunday aralash modelda har bir manbaning vazifasi aniq belgilanmasa, takroriy moliyalashtirish, xarajatlar samarasizligi yoki ayrim hududlarning e'tibordan chetda qolishi mumkin (2-rasm).

Maktabgacha ta'lim qamrovi dinamikasi



2-rasm. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovining o'sishi va strategik maqsadlar¹⁵

Amaliy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun eng maqbul yo'nalish ijtimoiy yo'naltirilgan aralash moliyalashtirish modelidir. Unda davlat qamrov, sifat va ijtimoiy adolat bo'yicha kafolat beruvchi markaziy subyekt bo'lib qoladi. Xususiy sektor esa davlat belgilagan standartlar, narx chegaralari, subsidiya shartlari va shaffof monitoring asosida tizimga jalb qilinadi. Bunday model ayniqsa qamrov darajasi past tuman va shaharlarda samarali bo'lishi mumkin. Chunki davlat barcha hududlarda bir xil tezlikda yangi MTT qurishga ulgurmasligi mumkin, xususiy sektor esa ijtimoiy kafolat va moliyaviy rag'bat bo'lmasa, daromadliligi past hududlarga kirishga qiziqmasligi mumkin.

Xorijiy tajribadan foydalanish budjet xarajatlarini kamaytirish vositasi sifatida emas, ularning natijadorligini oshirish mexanizmi sifatida talqin qilinishi kerak. Maktabgacha ta'limga ajratiladigan mablag'ni qisqartirish emas, uni adolatli, maqsadli va sifatga bog'langan holda ishlatish muhim. Xususiy bog'chalar soni ko'paygan sari davlatning roli kamaymaydi. Aksincha, tartibga solish, akkreditatsiya, nazorat, subsidiya va iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha mas'uliyat ortadi.

Moliyalashtirish tizimini bola ehtiyojiga yaqinlashtirish zarur. Umumiy qamrov ko'rsatkichini oshirish bilan birga, qaysi bola maktabgacha ta'limdan chetda qolayotganini aniqlash muhim. Chekka qishloqdagi bola, kam daromadli oiladagi bola, ota-onasi mehnat migratsiyasida bo'lgan bola, nogironligi bo'lgan bola yoki maktabga tayyorgarlikka muhtoj bola bir xil moliyaviy yondashuv bilan qamrab olinmasligi mumkin. Xorijiy tajribadagi tabaqalashtirilgan subsidiya modeli O'zbekiston uchun aynan shu jihatdan foydali. Mablag' bolaga ergashsa, lekin bolaning ijtimoiy holati, hududi va ehtiyoji hisobga olinsa, moliyalashtirish adolatliroq bo'ladi.

¹⁴ UNICEF Uzbekistan. Quality pre-school education is essential for ensuring the best start in children's lives, 2024.

¹⁵ Manba: muallif ishlanmasi.



Natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tizimida mablag' faqat sarf-xarajalar smetasiga qarab emas, balki ma'lum natijalar bilan bog'lanadi. Natijalar qamrov, davomat, tarbiyachi malakasi, bolalar rivojlanishiga mos muhit, ota-onalar qoniqishi, sanitariya-gigiyena holati, xavfsizlik talablari va ta'lim dasturining bajarilishi orqali baholanadi. Bunday yondashuv budjet mablag'ini sarflashdan natija yaratishga o'tkazadi. Amaliyotda bu model ehtiyotkorlik bilan joriy etilishi kerak, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini haddan tashqari testlash pedagogik jihatdan zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun natijadorlik mezonlari bolaga bosim qiladigan baholash emas, muassasa sifatini ko'rsatuvchi indikatorlar asosida qurilishi lozim.

O'zbekiston amaliyotida ayrim muammolar ham ko'rinadi. Xususiy sektor asosan iqtisodiy jihatdan daromadli hududlarda faol bo'lishga intiladi. Kam ta'minlangan oilalar uchun ota-onalar to'lovi og'irlik qilishi mumkin. Davlat va nodavlat MTTlar o'rtasida sifat, pedagoglar malakasi va moddiy-texnik baza bo'yicha tafovutlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Subsidyalarni hisoblash mezonlari shaffof bo'lmasa, mablag'lar ijtimoiy natija bermasdan sarflanishi mumkin. Xalqaro kredit va grantlar hisobidan yaratilgan infratuzilmaning keyingi doimiy xarajatlari milliy budjetda oldindan rejalashtirilmasa, loyiha tugagandan keyin samaradorlik pasayadi.

Rivojlantirish yo'llari sifatida O'zbekiston sharoitida hududiy ehtiyoj xaritasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Unda har bir tuman va mahalla kesimida bolalar soni, mavjud MTT quvvati, qamrov darajasi, ota-onalar to'lov qobiliyati, transport masofasi, bino va yer resurslari, xususiy sektor salohiyati ko'rsatilishi lozim. Tabaqalashtirilgan subsidiya modeli joriy etilishi ham dolzarb. Subsidiyaning miqdori bola soni bilan birga hududiy murakkablik, oilaning ijtimoiy holati, bolalarning maxsus ehtiyojlari va xizmat sifatiga bog'lansa, moliyaviy yordam aniq manzilga boradi.

Yana bir muhim yo'nalish ijtimoiy operatorlar reyestrini shakllantirishdir. Davlat ko'magini oladigan xususiy MTTlar narx, sifat, qamrov va shaffoflik majburiyatlarini bajarishi talab etiladi. Moliyalashtirish va sifat monitoringi yagona platformada birlashtirilsa, mablag' ajratish jarayoni real indikatorlarga asoslanadi. Bunday model davlat uchun nazoratni, xususiy sektor uchun barqaror rag'batni, ota-onalar uchun ishonchni, bola uchun esa sifatli va xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanishning amaliy natijasi shunda ko'rinadiki, davlat budjeti mablag'lari faqat muassasa mavjudligini saqlashga emas, balki aniq ijtimoiy natijani yaratishga xizmat qiladi. Agar moliyalashtirish qamrov, sifat, ijtimoiy himoya, hududiy tenglik va raqamli shaffoflik bilan bog'lansa, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi barqaror rivojlanish bosqichiga o'tadi. Bunda xorijiy tajriba nazariy bezak emas, balki milliy modelni takomillashtirish uchun ishlatiladigan ilmiy-amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish istiqbollari keng, biroq bu jarayon tayyor modelni o'zgartirmasdan qo'llash orqali emas, milliy sharoitga moslashtirilgan ilmiy-amaliy mexanizm yaratish orqali natija beradi. Maktabgacha ta'limni moliyalashtirish davlatning ijtimoiy majburiyati, xususiy sektorning investitsion salohiyati, mahalliy boshqaruvning hududiy moslashuvchanligi, xalqaro moliya institutlarining resurs va tajribasi, ota-onalarning ehtiyoji va bolalarning rivojlanish manfaatlarini yagona tizimda uyg'unlashtirishi kerak.

O'zbekiston uchun eng maqbul model davlat budjeti, mahalliy budjetlar, davlat-xususiy sheriklik, nodavlat va oilaviy MTTlar, xalqaro kredit va grantlar, homiylik mablag'lari, raqamli monitoring va tabaqalashtirilgan subsidiyalarni birlashtirgan ijtimoiy yo'naltirilgan aralash moliyalashtirish modelidir. Bunday yondashuv qamrovni kengaytirish bilan birga, sifatni nazorat qilish, kam ta'minlangan oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash, hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish va budjet mablag'laridan natijador foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4646908>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonun // URL: <https://lex.uz/docs/-4329270>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4327235>



5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi "2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7375282>.

6. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 426-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6141472>.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 848-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7271280>

8. Nasurova K.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari // International Finance and Accounting. - 2024. - № 3. <https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2025/02/6Nasurova-Kamolaxon.pdf>.

9. Nasurova K.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikligining ahamiyati // International Finance and Accounting. - 2024. - № 5. <https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2025/02/6Nasurova-Kamolaxon-2.pdf>.

10. Nasurova K.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2023. - № 10.

11. OECD. Education at a Glance 2025: OECD Indicators. - Paris: OECD Publishing, 2025. https://www.oecd.org/en/publications/education-at-a-glance-2025_1c0d9c79-en.html.

12. UNESCO. Uzbekistan: Global Education Monitoring Report country case study. - UNESCO, 2026. <https://www.unesco.org/gem-report/en/2026-gem-report-country-case-studies/uzbekistan>.

13. World Bank Group. Shaping the Future: Building Foundational Skills through Early Childhood Education and Inclusive Learning in Europe and Central Asia. - 2025. <https://www.worldbank.org/en/results/2025/04/15/building-foundational-skills-through-early-childhood-education-and-inclusive-learning-in-europe-and-central-asia>.

14. UNICEF Uzbekistan. Quality pre-school education is essential for ensuring the best start in children's lives. - 2024. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/quality-pre-school-education-essential-ensuring-best-start-childrens-lives>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>